



**Sarvar ODILOV,**

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: [sarvar1988@mail.ru](mailto:sarvar1988@mail.ru)

**Baxrom JOBBOROV,**

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

**Sardor BOBOYEV,**

O'zbekiston Milliy universiteti laboratoriya mudiri

Jizzax politexnika instituti dotsenti, PhD A.Taylaqov taqrizi asosida

**ASSESSMENT OF TAYE STATE OF WATER IN IRRIGATED AREAS BASED ON GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEMS  
(ON THE EXAMPLE OF THE YANGIDALA WATER CONSUMERS ASSOCIATION, MIRZACHUL DISTRICT, JIZZAKH REGION)**

**Annotation**

In this article, using the example of the Yangidala Water Users Association of the Mirzachul District of the Jizzakh Region, an assessment of the state of wastewater from irrigated lands was carried out based on geographic information systems.

**ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ СТОЧНЫХ ВОД ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ НА ОСНОВЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ  
ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ (НА ПРИМЕРЕ ЯНГИДАЛИНСКОГО АССОЦИАЦИЯ ВОДОПОТРЕБИТЕЛЕЙ  
МИРЗАЧОЛЬСКОГО РАЙОНА ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**Аннотация**

В этой статье на примере ассоциации водопользователей Янгидала Мирзачульского района Джизакской области была проведена оценка состояния сточных вод орошаемых земель на основе географических информационных систем.

**SUG'ORILADIGAN MAYDONLARNING SIZOT SUVLARI HOLATI GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA  
BAHOLASH (JIZZAX VILOYATI MIRZACHO'L TUMANI YANGIDALA SUV ISTE'MOLCHILAR UYUSHMASI MISOLIDA)**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani Yangidala suv iste'molchilar uyushmasi (SIU) misolida sug'oriladigan maydonlarning sizot suvlari holati geografik axborot tizimlari asosida baholangan.

**Kalit so'zlar:** Suv istemolchilar uyushmasi, geografig axborot tizimlari, sug'oriladigan maydon, sizot suvlari, sizot suvlari sathi, sizot suvlari minerallasshuvi.

**Kirish.** XXI asrga kelib insoniyat litosferaga mislsiz ta'sir ko'rsatmoqda. Shaharlar ostida yer osti shaharlari buniyod qilingan, chiqindixonalar, omborxonalar mavjuddir. Yer ostida yadro quroli sinovlari o'tkaziladi. Yer resurslari insonlar hayotida hal qiluvchi rol o'yaydi. Yer insonlar bevosita yashaydigan asos, qishloq ho'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan zamin hisoblanadi [1].

Quruqlikning umumiy maydoni 148000 mln.ga ni tashkil qiladi. Shundan 4060 mln.ga (28%) ni o'rmonlar, 2600 mln.ga (17%) ni o'tloq va yaylovlar, 1450 mln.ga (10%) haydaladigan yerlar va 66900 mln.ga (45%) ni cho'l, chala cho'llar, muzliklar, shahar, qishloqlar yerlari va boshqa maqsadda foydalanadigan yerlardir. Yer yuzida dehqonchilik maqsadlarida ishlataladigan yerlar mavjud yerlar hududining 10% ni tashkil qiladi va dunyo aholisi jon boshiga 0,5 ga dan to'g'ri keladi [2].

Orol dengizi havzasida 1950-yildan boshlab sug'oriladigan yerlar maydoni 3,5 mln gektardan 8,0-8,5 mln gektarga ko'paygan va shu bilan birga mintaqaning ikki asosiy daryolari bo'lgan Sirdaryo va Amudaryodan ilgari ishlatalmagan yangi yerlarni o'zlashtirish va kengaytirish hamda sug'orish maqsadlarida daryo suv resurslarini ishlatalishning keskin ortishi Orol dengizining qurishi bilan birga Orol dengizi havzasida mavjud chuchuk suv resurslarining miqdor va sifat ko'rsatgichlarining pasayishiga va mintaqaning ekologik hamda gidrologik balansi buzilishiga olib keldi [1, 2].

O'zbekistonda tuproqlarning mineral o'g'it va zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslanish darajasi doimo yuqori bo'lgan. Bunday vaziyatning asosiy sababi uzoq vaqt davomida yuqori hosil olish va zarakunandalarga qarshi kurash maqsadlarida kimyoviy moddalarning haddan tashqari ortiqcha ishlataligigidir. Oxirgi yillarda paxta maydonlarining kamayishi, almashib ekishning kengroq jorii qilinishi, mineral o'g'itlar, pestitsidlar ishlatalishining me'yorashtirilishi va boshqa tadbirlar tuproqlar holating yaxshilanishiga olib kelmoga

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar 4312,2 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,7% ini tashkil etib mintaqaga suv resurslarining qariyb 50% i asosan qishloq xo'jaligida (85-90%) va boshka turli maqsadlarda ishlataladi. Mintaqada sug'oriladigan yer maydonlaridan ekstensiv foydalanish, agrotexnika talablariga riyoa qilmaslik oqibatida cizot suvlari satxi (SSS) ning ko'tarilishi, minerallasshuvi oshishiga xamda yerlarning sho'rلانishiga olib kelgan. Bu holatga sug'orish maqsadlarida keragidan ortiq suv resurslaridan foydalanish, mavjud drenaj tizimlari ishlatalishda yetarli darajada texnik xizmat ko'rsatilmaganligi va tozalash ishlari olib borilmaganligi sabab bo'lgan [1, 2, 3]. Markazi Osifo davlatlarida sizot suvlari (SS) ning shakllanishi yer ustti va yer osti suv resurslarining miqdor va sifatiga uzviy bog'liqdir [1, 4].

Lekin ko'p hollarda arid va yarim-arid mintaqalarda joylashgan mamlakatlarda SS ni o'rganishda uning minerallasshuva jarayonlari yetarlicha inobatga olinmagan. Shu sababli ham juda yuqori darajada minerallasshgan SSS ning ko'tarilishi va ularning minerallasshuvining oshishi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarning foydalanishdan chiqib ketishiga hamda ularning xosdorligi pasayishiga olib kelmokda va bu holat ko'p hollarda mutaxassislar e'tiboridan chetda qolmoqda [5].

SS ning minerallasshuva jarayonlarini asosan hududning geologik sharoitlarini, gidravik gradiyentini, hamda SS ga sug'oriladigan yerlardan foydalanish orqali qo'shiladigan suvlarni boshqarib, nazoratga olish mumkin [6, 7]. SS minerallasshuvi (SSM) ni baholashda SS tarkibidagi kimyoviy kation elementlar (Na, K, Mg, Ca - mg/l), anion birikmalari (NO<sub>3</sub>, HCO<sub>3</sub>, SO<sub>4</sub>, Cl va Br - mg/l), elektr o'tkazuvchanligi (EC), hamda pH muhitini e'tiborga olinadi [7]. Shuning uchun SSM ni chuqur tahvil qilib o'rganishda keng miqyosda hidrogeologik va hidroximik tadqiqotlarni mutazam olib borish kerak bo'ladi.

Keyingi yillarda masofadan zondlash va geografik axborot tizimlari (GAT) zamoniaviy texnologiyalar sifatida geologik, hidrogeologik va geomorfologik tadqiqotlar uchun an'anaviy ilmiy tadqiqotlar usullariga qo'shimcha ravishda katta geografik miqyosdagagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash, tahvil qilish va baholashda samarali natijalar bermokda [8].

Ayniqsa an'anaviy usullar va GAT texnologiyalarning integratsiyasi SS ni o'rganishda samarali vosita ekanligini olib borilgan tadqiqotlar isbotlagan [8, 9, 10, 11]. Masofadan zondlash ma'lumotlari masofadan turib aniq fazoviy ma'lumotlar olishni ta'minlaydi va odatdagiga qaraganda har tarafdan aniq, tezkor va unumdon gidrogeologik va gidroximik tadqiqotlar olib borishni taminlaydi.

Raqamli takomillashtirish sun'iy yo'ldoshlardan olinigan ma'lumotlar SS ni o'rganish uchun aniq va foydali bo'lgan maksimal darajadagi ilmiy-amaliy ma'lumot olishni taminlaydi. GAT texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarning integratsiyasi va tahlilini osonlashtiradi, dala tadqiqotlari o'z navbatida GAT natijalarini asoslashda va aniqligini tekshirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlardan samarali foydalanish to'g'ri uslubiyatni tanlab ishlatgandagina o'zining ijobiy samarasini beradi [8, 12, 13, 14].

SSS ni tadqiq qilishda GAT texnologiyalari qullanilib yaxshi natijalar olinmokda va ushbu natijalar SSS ni aniq o'ichash va baholashda muhim rol o'ynameqda [15, 16].

GAT texnologiyalari sizot suvlari minerallashuvi (SSM) va sug'oriladigan maydonlar sho'rланishi darajasini aniqlash va baholashda ham qo'llanilmogda. Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakatlarda ko'plab olim va mutaxassislar SSM ning ayni vaqtidagi holati bilan sug'oriladigan maydonlar sho'rланishi o'tasidagi bog'likni GAT uslublari (interpolyatsiya, vegetatsiya va gidrologik indekslar) orqali chuqur o'rganilgan [3, 10, 11, 13].

Respublikamizda o'tkazilgan amaliy ishlar va ilmiy tadqiqotlar natijasida jami 2 mln. 418,8 ming hektar sug'oriladigan yer maydonlarining 1 mln. 743,6 ming hektari (72,1 %) turli darajada sho'rланanligi, shundan 930 ming hektar (38,4 %) kuchsiz darajada, 550,5 ming hektar (22,8 %) o'rta darajada, 149,5 ming hektar (6,2 %) kuchli darajada va 113,6 ming hektar (4,7 %) juda kuchli darajada sho'rланanligi aniqlandi. Jumladan, Jizzax viloyatida (7 ta tuman) jami 210,9 ming hektar sug'oriladigan yer maydonlaridan 161,1 ming hektari (76,4 %) turli darajada sho'rланan, shundan 84,8 ming hektar (40,2 %) kuchsiz darajada, 68,4 ming hektar (32,5 %) o'rta darajada, 7,2 ming hektar (3,4 %) kuchli va 734,1 hektar (0,3 %) juda kuchli darajada sho'rланan [2].

Mirzacho'l tumani. Tumanda 31182,8 hektar sug'oriladigan yer bo'lib, ularning meliorativ holati qoniqarsiz hisoblanadi, ya'ni deyarli barcha sug'oriladigan tuproqlar turli darajada sho'rланan. Sho'rланmagan tuproqlar maydoni 788,7 hektarni, ya'ni 2,53% ni tashkil etadi [3]. Kuchsiz sho'rланan tuproqlar tumanda 21768,1 hektarni, ya'ni 69,8 % ni tashkil etadi, kuchsiz sho'rланan tuproqlarning sho'rланish tipi sulfatli va xlorid-sulfatli. O'rtacha sho'rланan tuproqlar tumanda 8045,8 hektarga teng, bu 25,80 % ni tashkil etadi, tuman sug'oriladigan tuproqlarining yarmidan ortig'i o'rtacha sho'rланan. Sho'rланish tipi, asosan, sulfatli va xlorid-sulfatli. O'rtacha sho'rланan tuproqlar tumanning barcha massivlarida targalgan. Kuchli sho'rланan tuproqlar tuman maydonining 417,5 hektarini, ya'ni 1,34 % ni tashkil etadi, sho'rланish tipi xlorid-sulfatli. Juda kuchli sho'rланan tuproqlar maydoni 162,7 hektarni tashkil etadi, bu 0,52% ni tashkil etadi [4].

Shularni e'tiborga olgan holda, ushbu maqolaning asosiy maqsadi an'anaviy tadqiqot usullari va GAT texnologiyalarini uyg'unlashtirib Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani Yangidala SIU misolida sug'oriladigan maydonlarning sizot suvlari holati geografik axborot tizimlari asosida baholashdan iborat.

**Tadqiqot obyekti.** Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani Yangidala suv is'temolchilar uyushmasi (SIU) sug'oriladigan maydonlari hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Geografik axborot tizimlari (GAT) hozirgi kunda barcha sohalarda keng qo'llanilib kelinmoqda. GAT turli usullar bilan to'plangan keng mazmuni ma'lumotlari bazasiga tayangan mukammal rivojlangan, axborotni yig'ish, ularga ishlov berish, kompyuter xotirasida saqlash, yangilash, tahlil qilish va ma'lumotlarni qayta ishlashni ta'minlovchi avtomatlashtirilgan kompleks tizim bo'lganligi uchun ham juda ko'p afzalliklarga ega [5].

Ma'lumki, raqamli xarita deganda biz biror bir hudud yoki mintaqasi haqidagi kartografik ma'lumotlarning kompyuter xotirasidagi raqamli yozuvini tushunamiz. Raqamli xarita - tanlangan proyeクsiyalar va nomenklatura chizmalarida aniq maqsadlar va mazmuni uchun mo'ljallangan, aniqlik va ishonchliklilik talablariga javob beradigan xaritalar uchun mos matematik asosdagi raqamli model hisoblanadi. Raqamli xarita topografik xaritalar varaqasining mazmuni alohida, maqsadga muvofiq ravishda umumlashtirilgan raqamli yozuvini o'z ichiga oladi [4].

Raqamli xarita ikki qismdan iborat: ular kiritish, saqlash, ishlov berish va boshqalar bilan bir birdan farqlanadi: raqamli kartografik asoslar (RKA); aniq bir mavzuli mazmunga ega bo'lgan qism [3].

Raqamli kartografik asosni yaratish - har qanday kartografik ishni bajarishdagi birinchi qadamdir. Tadqiqot maydonini o'rganish uchun biz Landsat sun'iy yo'ldoshidan olinigan kosmik tasvir ma'lumotlardan foydalanildi.

Dastlabki qo'q'oz asosni skannerlash uchun xaritaning har bir varag'i to'g'ridan-to'g'ri planshet skaner orqali skannerlash ishlari amalga oshirildi. Raster tasvirini grafik formatlariga jpg (bmp yoki tif) aylantirishda ArcGIS 10.6 dasturi yordamida amalga oshirildi. GAT asosida sho'rланishga uchragan yerlarni aniqlash maqsadida ma'lumotlarni bazasining tarkibiy tuzilishi ishlab chiqiladi.

Ma'lumotlarni tafsirlashda GAT turli elementlari raqamli xaritalar asosini yaratishda, xaritaning barcha elementlari raqamli holga keltirilgan. Elektron qatlamlardagi ma'lumotlarni mazmunki va mohiyatiga hamda bir xil elementlarning ifodalanganligiga ko'ra ob'ektlar birlashtirilgan.

Obyektlarni raqamlashtirish va tafsirlashdan so'ng ularning atribut ma'lumotlari shakllantirildi. Har bir obyekt va qatlarni uchun alohida o'z ma'lumotlari ga bo'lgan ma'lumotlarni bazalari yaratildi. Obyektlarni tafsirlashda har bir elektron qatlarni bo'yicha obyektlarning atributlari va maydonlari yaratilish ularning turlari (maydon, chiziqli, siniqli chiziqli) ajratilgan.


Tuproqlarning sho'rланishga uchragan va sho'rланish jarayonlariga moyil bo'lgan hududlarini GAT dasturlari asosida aniqlash va baholashda relyef haqidagi fazoviy va atributiv ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Relyef haqidagi ma'lumotlarni tuzish imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlardan amalda foydalanish uchun odatda quyidagi dastlabki ma'lumotlarni ishlataladi: topografik xaritalar, sun'iy yo'ldosh tasvirlari va ular haqidagi ma'lumotlari, yer ustini kuzatuv ma'lumotlari.

Tadqiqot hududining mavzuli elektron qatlamlari raqamli xaritalar asosini yaratishda, xaritaning barcha elementlari raqamli holga keltirilgan. Elektron qatlamlardagi ma'lumotlarni mazmunki va mohiyatiga hamda bir xil elementlarning ifodalanganligiga ko'ra ob'ektlar birlashtirilgan.

Obyektlarni raqamlashtirish va tafsirlashdan so'ng ularning atribut ma'lumotlari shakllantirildi. Har bir obyekt va qatlarni uchun alohida o'z ma'lumotlari ga bo'lgan ma'lumotlarni bazalari yaratildi. Obyektlarni tafsirlashda har bir elektron qatlarni bo'yicha obyektlarning atributlari va maydonlari yaratilish ularning turlari (maydon, chiziqli, siniqli chiziqli) ajratilgan.


Tuproqlarning sho'rланishga uchragan va sho'rланish jarayonlariga moyil bo'lgan hududlarini GAT dasturlari asosida aniqlash va baholashda relyef haqidagi fazoviy va atributiv ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Relyef haqidagi ma'lumotlarni tuzish imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlardan amalda foydalanish uchun odatda quyidagi dastlabki ma'lumotlarni ishlataladi: topografik xaritalar, sun'iy yo'ldosh tasvirlari va ular haqidagi ma'lumotlari, yer ustini kuzatuv ma'lumotlari.

**Tahlil va natijalar.** Sug'orishda foydalaniyatotgan suv resurslaridan barqaror foydalanish, sug'oriladigan yerdalarda tuproq sho'rланish holatlarini oldini olish, yerlar meliorativ holatini aniq baholash, ekinlar hosildorligini ta'minlash uchun Sug'oriladigan yerlarning ekologik holatini GAT asosida baholashni o'rganish juda ham muhim.



**1-rasm.** 2022 - 2023 yillarda Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani Yangidala SIU sug'oriladigan maydonlarda sizot suvlari mineralashuvining o'zgarishi.

Tadqiqot hududida 2022 yilda sizot suvlaringin mineralashuviga o'ttacha 3,4 g/l ni tashkil etgan bo'lib, sug'oriladigan yerlarning asosiy qismini 3-5 g/l mineralashuviga ega bo'lgan sizot suvlari egallagan. 2023 yilda sizot suvlaringin mineralashuviga o'ttacha 2,8 g/l ni tashkil qilib, sug'oriladigan yerlarning asosiy qismini 1-3 g/l mineralashuviga ega bo'lgan sizot suvlari egallagan bu esa sizot suvlaringin mineralashuvini yaxshilanganligini bildiradi (1-rasm).



**2-rasm.** 2022 - 2023 yillarda Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani Yangiadalı SIU sug'oriladigan maydonlarda sizot suvlari sathining o'zgarishi

Tadqiqot hududida 2022 yilda sizot suvlaringin sathi o'ttacha 3,1 m ni tashkil etgan bo'lib, sug'oriladigan yerlarning asosiy qismini 2-5 m sathiga ega bo'lgan sizot suvlari egallagan. 2023 yilda sizot suvlaringin sathi o'ttacha 3,1 m ni tashkil qilib, sug'oriladigan yerlarning asosiy qismini 2-5 m sathiga ega bo'lgan sizot suvlari egallagan bu esa sizot suvlaringin sathini o'zgarmanligini bildiradi (2-rasm).

**Xulosa.** Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari sizot suvlaringin mineralashuvini yaxshilanganligini bildiradi, sizot suvlaringin sathini o'zgarmanligini ko'rsatdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Dukhovny V. A., de Schutter J. Water in Central Asia: past, present, future //CRC press, 2011. – New York, The USA. 176 p.
2. Соколов В.И. Водное хозяйство Узбекистана – настоящие, прошлое, будущее //Ташкент, 2015. т. 1. 16 с.
3. Kulmatov R., Groll, M., Rasulov, A., Soliev, I., Romic, M. Status quo and present challenges of the sustainable use and management of water and land resources in Central Asian irrigation zones-The example of the Navoi region (Uzbekistan) //Quaternary international, 2018. vol. 464. Pp. 396-410.
4. Country Report: for Workshop on Eco Efficient Water Infrastructure /Juraev, I. // Ministry of Agriculture and Water Resources, Republic of Uzbekistan. Tashkent – 2008.
5. Choudhury K., Saha D. K., Chakraborty P. Geophysical study for saline water intrusion in a coastal alluvial terrain //Journal of applied geophysics, 2001. vol. 46, №. 3. Pp. 189-200.
6. Fadili A., Mehdi, K., Riss, J., Najib, S., Makan, A., Boutayab, K. Evaluation of groundwater mineralization processes and seawater intrusion extension in the coastal aquifer of Oualidia, Morocco: hydrochemical and geophysical approach //Arabian Journal of Geosciences, 2015. vol. 8, №. 10. Pp. 8567-8582.
7. Morgan L. K., Werner A. D. Seawater intrusion vulnerability indicators for freshwater lenses in strip islands //Journal of Hydrology, 2014. vol. 508. Pp. 322-327.
8. Solomon S., Quiel F. Groundwater study using remote sensing and geographic information systems (GIS) in the central highlands of Eritrea //Hydrogeology Journal, 2006. vol. 14, №. 6. Pp. 1029-1041.
9. Krishnamurthy J., Venkatesa Kumar, N., Jayaraman, V., Manivel, M. An approach to demarcate ground water potential zones through remote sensing and a geographical information system //International journal of Remote sensing, 1996. vol. 17, №. 10. Pp. 1867-1884.
10. Sander P. Remote sensing and GIS for groundwater assessment in hard rocks: Applications to water well siting in Ghana and Botswana //PhD, Chalmers University of Technology, Sweden, Publ. A. 1996. 80 p.
11. Saraf A. K., Choudhury P. R. Integrated remote sensing and GIS for groundwater exploration and identification of artificial recharge sites //International journal of Remote sensing, 1998. vol. 19, №. 10. Pp. 1825-1841.
12. Narany T. S., Ramli, M. F., Aris, A. Z., Sulaiman, W. N. A., Fakharian, K. Groundwater irrigation quality mapping using geostatistical techniques in Amol-Babol Plain, Iran //Arabian Journal of Geosciences, 2015. vol. 8, №. 2. Pp. 961-976.
13. Solomon S., Quiel F. Integration of remote sensing and GIS for groundwater assessment in Eritrea //Proc of the European Association of Remote Sensing Laboratories Conf, Herrsching, 2003. Pp. 633-640.
14. Vargas R., Pankova E. I., Balyuk S. A., Krasilnikov P. V., Khasankhanova G. M. Handbook for saline soil management. – FAO/LMSU, 2018. 231 p.
15. Nayak T. R., Gupta S. K., Galkate R. GIS based mapping of groundwater fluctuations in Bina basin //Aquatic Procedia, 2015. vol. 4. Pp. 1469-1476.
16. Sadat-Noori S. M., Ebrahimi K., Liaghat A. M. Groundwater quality assessment using the Water Quality Index and GIS in Saveh-Nobaran aquifer, Iran //Environmental Earth Sciences, 2014. vol. 71, №. 9. Pp. 3827-3843.